

**ZARNIGOR XURRAMOVA SHE’RLARI**



**Zarnigor Xurramova Akbarjon qizi**

Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi  
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Uchtepa mahallasi 12-uy  
+998947678410

2006-yil Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Uchtepa mahallasida tug‘ilgan va shu yerdagi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabini tamomlagan. Zakovat, Yosh kitobxon tanlovlariga qatnashib faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. 2023-yil Oqdaryo tumanidagi yosh ijodkorlar uyushmasi a’zosi bo‘lgan. 2024-yil Ona tili va adabiyot fanidan til sertifikatiga ega bo‘ldi. Bolaligidanoq badiiy adabiyotga ixlos qo‘yganligi, she’riyatni sevganligi Zarnigorni adabiyot maydoniga yetakladi. 2024-yil Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi. Oliy ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda faol ishtirok etadi.

**Mitti tilak**

Ko'pni tilamayman Sendan Allohim,  
Senga yetib borarmi, dodi faryodim?!  
Yolg'on dunyo osmonida qo'shqanotim,  
Ota-onam sog'ligin ber ilohim!

Tashvishlar ortidan kelar tashvishlar,  
Dard ila parishon jimgina kular.  
Sendan faqat mening baxtmni tilar  
Umrlariga umr qo'shgin ilohim

Yig'lamasin yosh ko'rmayin ko'zida  
Ming ma'no mujassam shirin so'zida  
Meni o'ylaguvchi tayin o'zida...  
Kulgichli bir baxtlar bergin ilohim.

Viqor-la qadamin tashlasin mag'rur,  
Baxtimdan toleyi yashnasin masrur.  
Olamda ko'rmasin kamchilik qusur,  
Yo'llariga omad bergin ilohim

Dilini og'ritsam qalbim xasratda,  
Yurarman o'zimdan o'zim nafratda,  
Kechirolmay o'zimni biror fursatda,  
Jannati bog'ingdan taxt ber, ilohim

**Yuzingizni burmang, Onajon**

Bilib-bilmay xatolar qilsam,  
Yuragingiz og'ritib qo'ysam.  
Yashamoqdan hattoki to'ysam,  
Yuzingizni burmang, Onajon!

O'z g'amimni o'ylaganimda,  
O'zga dardin so'ylaganimda,  
Sog'inchlardan bo'ylaganimda,  
Yuzingizni burmang, Onajon!

Ahvolingiz so'rolmay qolsam.  
Yoningizga borolmay qolsam,  
Tik qarasa goho ko'zlarim,  
Yuzingizni burmang, Onajon!

Begonalar sirim sotganda,  
Dard quvonchdan nogoh ortganda,  
Yomon so'zlar tig'day botganda,  
Yuzingizni burmang, Onajon!

Azoblarga yo'liqqanimda,  
Mehnatdan ham toliqqanimda,  
Xatolardan qoqilganimda,  
Yuzingizni burmang, Onajon!!

G'amga to'lib yig'laganimda,  
Yurakkinam tig'laganimda,  
Dunyolarga sig'maganimda,  
Yuzingizni burmang, Onajon!

**Onam...**

Yo'linga termulib aslo tolmay siz,  
Doug'a qo'l ochib sira tonmay siz,  
O'zinga aybimni oshkor qilmay siz,  
Jannat gullaridan a'losi onam.

Har yurgan yo'llarda meni o'ylaysiz  
Allohdan doimo baxtim so'raysiz  
Farzandlar iqbolin ko'rayin deysiz,  
Jannat gullaridan a'losi onam.

Yuzingiz kulsa-da qalbingiz yig'lar,  
Sezdirmassiz, vale ko'zingiz so'zlar  
Dono so'zingizdan qalbimiz quv nar  
Jannat gullaridan a'losi onam.

G'amingiz kimsaga aytmay yurasiz,  
Bilmadim, ne baxtli xayol surasiz?..  
Bizni joningizdan ortiq suyasiz  
Jannat gullaridan a'losi onam.

Bolam deb kechadan bedor o'tasiz  
Ro'zg'or kamin o'ylab tinim bilmay siz  
Umr tez o'tganin hatto sezmay siz

Jannat gullaridan a'losi onam.

Barchadan kech uxlab erta turasiz,  
Dardimning davosin yaxshi bilasiz ,  
Farzand-chun hattoki jonni berasiz  
Jannat gullaridan a'losi onam.



**Yana buvinga**

Dunyo go'zal bo'lardi har gal,  
Buvijonim jilmayib qo'ysa,  
Qani endi qaytsa o'shal dam,  
Zarnigor deb yana bir suysa...

Suratingiz quchib charchadim,  
Qani bir bor o'zingiz quchsam.  
Yoningizga borgim keladi,  
Iloj topsam, siz tomon uchsam...

Shiringina armonim sizsiz,  
Sog'inchlarim sizgadir cheksiz,

Jarlikdaman men go'yo tubsiz,  
Eh, afsuski yonimda yo'qsiz...

Sog'inchlarim qalbim tig'laydi,  
Yurakkinam tinmay yig'laydi ,  
Har soniya sizni qumsaydi ,  
Qaytmaslikni yurak bilsaydi....

So'zlaringiz sog'indim juda,  
Ko'nmayabdi yurak bechora,  
O'yga tolar yana behuda,  
Dardga davo topmas nachora...

Dunyo go'zal bo'lardi har gal,  
Buvijonim jilmayib qo'ysa,